

#Kitoblar va ilmiy tadqiqotlar o‘qish

#Muzey va tarixiy joylarga tashrif buyurish

#Hujjatli filmlar va tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish

#Arxiv hujjatlari va asl manbalarni tahlil qilish

O‘tmishdan saboq chiqarish va uni bugungi hayot bilan solishtirish

Xulosa

Tarix – bu faqat o‘tib ketgan voqealar jamlanmasi emas, balki kelajak sari yo‘l ko‘rsatadigan bir mayoqdir. U insoniyatga o‘z xatolarini tushunish, milliy madaniyat va an’analarni saqlash, jamiyat rivojlanish yo‘lini to‘g‘ri belgilash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham tarixni o‘rganish shunchaki bir fan emas, balki hayotiy zaruratdir.

AGRO SOHALARDA FANLARNI O‘QITISHDA TALABALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Qarshi davlat texnika Universiteti
talabasi Maxmiyev Afro‘zbek Dadaxon o‘g‘li**

**“Qishloq xo‘jaligi masalasini alohida e’tiborga olib,
tez-tez muhokama qilib borayotganimiz bejiz emas.**

**Chunki bu iqtisodiyotning to‘rtadan bir qismini
tashkil qiladigan muhim soha. Buning zamirida
xalqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi, qancha
ish o‘rinlari yotibdi”**

Prezident: Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya: Jamiyatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini kelajakda amalga oshiradiganlar yoshlar, ya’ni ertangi mutaxassis, hozirgi talabalardir. Shuning uchun ham jamiyatning kelajagi qanday bo‘lishi ko‘p jihatdan ularning intellektual va axloqiy jihatdan qay darajada kamol topishlariga bog‘liq. Mustaqil fikr yuritish faoliyatini shaklantirish muammolari, qo‘yilgan muammodan chiqib ketish usullari. Ta’lim oluvchi fikrlashidagi tanqidiylik oqilona, odilona, omilkorlik bilan amalga oshirilsa, namoyon bo‘lsa, unda shaxs uchun muhim ham aqliy, ham axloqiy sifat (xislat) vujudga keladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim-tarbiya, mustaqil fikr, ta’lim oluvchi, muammo, internet

Kirish: Bugungi kunda dunyo hamjamiyati hayot faoliyatining barcha soxalarida ko‘p qirrali o‘zgarishlar bo‘lib o‘tmoqda, bu esa o‘z navbatida bo‘lajak professionalni shakllantirishga yangicha yondashuvni talab etadi. Butun dunyoda bo‘lgani singari yurtimizda ham ta’lim maqsadlari sohasida kechayotgan o‘zgarishlar, insonning ijtimoiy olamga kirishini ta’minalashga qaratilgan global masalalarga mos keladi. Xususan, ta’lim tizimini takomillashtirish hujjatlarida kompetentli yondashuv ta’lim mazmunini yangilashning muhim bir konseptual holati sifatida e’lon kilinmoqda. Ta’lim tizimida kompetentli yondashuvni amalga oshirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini ko‘llash qobiliyatiga ega bo‘ladigan axborot texnologiyalari yo‘nalishi kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash zarur. “Agar mendan sizni nima qiynaydi? deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim – tarbiyasi, deb javob berardim” prezidentimiz Shavkat Mirziyov.

Qishloq xo‘jalik sohasidagi oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘tkazish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo‘llanmalardan foydalanish, talabalarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, talabalar bilan individual ishslash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta’lim ustuvorligini ta’minalaydi. Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko‘rsatadiki, faqat ma’naviyat-ma’rifat keng quloch yoygan, ilm-urfon taraqqiy etgan mamlakatdaginaadolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli,kamolotli insonlar shakllanishi mumkin.

Muammo va natijalar: Ta’lim oluvchining o‘quv faoliyatida fikr yuritishning o‘zaro mustahkam bog‘langan berk zanjiri vujudga keladi: mustaqil fikrlash, muammo, masala (topshiriq). Ta’lim oluvchinnig mustaqil fikrlashi quyidagi bosqichlarda tarkib topishi mumkin.

Birinchi bosqich. Mustaqil fikr yuritish faoliyatida, eng avvalo hal qilinishi zarur bo‘lgan masala (topshiriq) ta’lim oluvchi tomonidan aniqlab olinishi kerak. Agarda uning oldida hech qanday masala yoki muammo vujudga keltirmagan bo‘lsa, u holda biron-bir narsa to‘g‘risida fikr ham yuritmaydi. Demak, ta’lim oluvchi qarshisida hech qanday muammo paydo bo‘lman, mabodo u yechish shart bo‘lgan masala yuzasidan qanchalik aniq va to‘laroq ma’lumotlarga ega bo‘lsa, uning oqilona bajarishi yuzasidan yo‘l va vositalarni shunchalik yengillik bilan topadi. Buning uchun ta’lim oluvchilar qo‘yilgan masala mazmunini avvalo ma’lum darajada tushunib olishlari, uning shartini tekshirib chiqishlari, nima ma’lum va nima noma’lum ekanligini aniqlashlari mutlaqo zarur. Faqat ana shundagina, ular sira shoshib qolmaydilar va sira ikkilanmasdan (topshiriq) shartini qidirib, zehn bilan uni tahlil qilishi, tatbiq etish natijasida to‘g‘ri yechishga erishadilar.

Ikkinchi bosqich. Muammo yoki masalani hal qilish uchun eng zarur bo‘lgan barcha bilimlarni (qoidalar, omillar, qonuniyatlar, xossalalar, xususiyatlar, muhim belgilari, munosabatlari, bog‘lanishlar va boshqalarni) tatbiq qilish uchun intiladilar. Buning uchun esa ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasida uchragan holatlardan, usullardan unumli foydalangan holda yangi sharoitga, obyektga ko‘chirish jarayoni amalga oshiriladi.

Uchunchi bosqich. Masala yoki muammoga taalluqli faraz (taxmin) ilgari suriladi, bosqichlar tahlil qilinadi, yechish to‘g‘risida mulohazalar yuritiladi, turli variantlar hamda variatsiyalar, invariantlar haqida fikr bildiriladi, ular o‘zaro qiyoslanishi natijasida eng samarali alomatlarga, belgilarga ajratiladi va hokazo.

To‘rtinchi bosqich. Muammo oldiga qo‘yilgan gipotezani muayyan mezonlar natijasi yordami bilan tekshirish zaruriyati tug‘iladi. Uni tekshirish uchun o‘zaro o‘xshashlik holatlari ma’naviy, shakliy, tuzilmaviy jihatdan taqqoslanadi. Bu o‘rinda ijodiy xayol materiallardan atroflicha foydalanaladi, ya’ni ijodiy rejalar tuzish, umumlashma obrazlar yaratish, maqsad va natijalarini ko‘z o‘ngiga keltirish, taxminiy munosabatlarni idrok qilish amalga oshiriladi. Uning haqqoniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun aqliy xatti-harakatlar tizimini tatbiq etib ko‘riladi va ayrim o‘zgarishlarni kiritish mo‘ljali oydinlashtiriladi. Gipoteza mantiqiy usullar yordamida fikran analiz(tahlil) va sintez qilinadi, uning muhim alomatlari ajratiladi, uning to‘g‘riliqi, haqqoniyligi bo‘yicha tezkor hukm va xulosalar chiqariladi.

Beshinchi bosqich. Muammoni nazariy jihatdan hal qilish uchun ilgari surilgan gipoteza to‘g‘riliqi yoki noto‘g‘ri ekanligi aniqlansa, u fikr yuritish obyektidan siqib chiqariladi va yangi farazlar, o‘ylar topiladi. Yangi amaliy gipoteza fikran bir necha marta tekshiriladi va undan so‘ng amaliyatga joriy qilish uchun sinashga tavsiya etiladi. Ta’kidlab o‘tilgan mulohazalarning aksariyati konstruktiv texnik masalalarni hal qilishda, kashfiyotlarni yaratishda, ixtirochilik takliflarida, ratsionalizatorlikda, texnologik qurilmalarni joriy etishda turli-tuman modellar, variantlar, preparatlar,

texnologik kartalar va boshqalar fikran tahlil qilinadi, so‘ngra ulardan eng ma’quli, omilkori, oqili, eng maqsadga muvofiqi tanlanadi va uning ustiga bosh qotirishda davom ettiriladi.

Oltinchi bosqich. Muammo yoki masalani hal qilish, yechish, olingan natijalarning to‘g‘riligiga ishonch va qanoat hosil qilish uchun ta’lim oluvchi uni tekshirish bilan mustaqil fikr yuritish xatti-harakatlarini yakunlaydi. Ana shu fikriy operatsiyalar, mulohaza shakllaridan so‘ng masala (topshiriq) batamom hal qilinadi deb topiladi va u to‘g‘rida o‘ylash nisbiy jihatdan to‘xtatiladi, xolos. Ta’lim oluvchining mustaqil fikr yuritishi quyidagi bosqichlardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin: - muammoning ta’lim oluvchi idrok maydonida paydo bo‘lishi; - ta’lim oluvchi tomonidan masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglashi; - ularga o‘xhash ma’lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi; - tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning uzluksiz tug‘ilishi; - taxminlarni bosqichma-bosqich tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash; - yangi taxmin (faraz)ning yuzaga kelishi va takomillashuvi; - farazlarni ikkilamchi tekshirish(ikkinchi marta tasdiqlash); - masala, topshiriq, muammo yechimini topish (hal qilish); - ixtiyorsiz aqliy xatti-harakatlarning davom etishi (fikrlarning nisbiy davomiyligi) va hokazo.

O‘zining va o‘zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo‘lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera olishda aqlning tanqidiylici muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga muammo mohiyatining to‘g‘ri ochilishiga muayyan mezonga asoslanib amalga oshirilsa, unday tanqidiylik obyektiv tanqidiylik deyiladi. Mabodo, ta’lim oluvchining tafakkuri tanqidiylici subyektiv (shaxsiy) xatolarga umuman subyektivizmga og‘ib ketsa, bunday holda subyektiv tanqidiylik deb ataladi. Ta’lim oluvchi fikrlashidagi tanqidiylik oqilona, odilonqa, omilkorlik bilan amalga oshirilsa, namoyon bo‘lsa, unda shaxs uchun muhim ham aqliy, ham axloqiy sifat (xislat) vujudga keladi. suv xo‘jaligi sohasida mutaxassislar malakasini oshirish tizimini tashkil etish, suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan ta’lim va ilmiy muassasalar o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, fan yutuqlarini amaliyatga joriy etish choralarini ko‘rish [1]

Xulosa: Talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyatga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikr yuritish, o‘zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan kasbiy tayyorgarlik mahorat sari ta’lim oluvchilarni yetaklaydi, tabiat hodisalari va oilaviy muammolarni anglash uchun puxta negiz hozirlaydi.

“Raqamlashtirish bo‘lmasa, sohada haqqoniy statistika bo‘lmaydi. To‘g‘ri ma’lumot bo‘lmaqach, agroxizmatlar rivojlanmaydi, fermerlar qachon nimani eksa, ko‘proq daromad olishini bilmaydi. Shuning uchun bu jarayonni tezlashtirish kerak”

Prezident: Shavkat Mirziyoyev.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni-2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini-2019.
3. O. Fayziyev. “Ta’lim-tarbiya sohasiga yangicha yondashuv — barqaror taraqqiyot garovi” maqolasi- «Xalq so‘zi»-2017.
4. Sh. Mirziyoyev. “Agrar sohada yil yakunigacha kutilayotgan natijalar va kelgusi yildagi vazifalar” yuzasidan o’tkazilgan yig‘ilishi. 2024

Jadidlar millatning yuragida yashamoqda

Baratova Hulkar

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda jadidlarga berilayotgan e’tibor va jadidchilik harakatidagi holatlarning yoshlarimiz ongiga ta’siri. Jadidchilik harakati namoyandalari va qilgan ishlari haqida ma’lumot va bugungi kunga kelib jadidchilik targ‘ib qilish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan qarorlar.

Аннотация

В данной статье внимание уделено современности в нашей стране и влияние обстоятельств джихадистского движения на умы нашей молодежи. Джадидизм тнформация о представителях движения и чем они занимались сегодня в настоящее время разрабатываются решения по пропаганде джадидизма.

Annotation

In this article, the attention paid to modernity in our country and the influence of the circumstances of the jihadist movement on the minds of our youth. Jadidism Information about the representatives of the movement and what they did today Currently, the decisions on the promotion of Jadidism are being developed.

Kalit so‘zlar

Jadidchilik , targ‘ibot, islohot, dunyoqarash, ijtimoiy tuzim, niqob, faoliyatn, ma’naviyat, kelajak,